

XIX ASR OHIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUKHORO XALQ ANANAVIY MADANIYATIDA AHMAD DONISHNING QUSHGAN HISSASI.

Muallif: Niyozov Maqsud Tilavovich
Buxoro viloyat Peshku tuman
1-son texnikum Tarix fani o'qituvchisi

Abstrakt: Zarafshonning kuyi okimda zhoylashgan Bukhoro Sharqning qadimiy madaniy markazlaridan biri bwlilb, 2500 yillik tarixga egadir. U turli davrlarda uz davridan yuksak tarakkiyot va turgunliklarni kechirdi. Yirik davlatlar poytaxti va navbatdagi boskichning vahshiyona yurishi ishlab chiqarish kuli kukka sovirildi. U yana kuldand gurkanab yashnagan shaharga islandi.

Kalit so'zlar: An'anaviy madaniyat, o'troq hayot tarzi, forsiyzabon, ko'chmanchi, taraqqiyot va turg'unlik.

XIX asrning yarmi – XX boshlarida Buxoro an'anaviy madaniyati va uning rivojida Ahmad Donishning hissasi hamda u yashab ijod etgan faoliyati to'g'risidagi bayonida xalq paydo bo'lishi haqida aytib o'tilgan. Zarafshonning quyi oqimida joylashgan Buxoro Sharqning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, 2500 yillik tarixga egadir. U turli davrlarda uz davridan yuksak tarakkiyot va turg'unliklarni kechirdi. Yirik davlatlar poytaxti va navbatdagi bosqichning vahshiyona yurishi ishlab chiqarish kuchi ko'kka sovrildi. U yana kuldand gurkanab yashnagan shaharga aylandi.

Buxoro vohasi Malikcho'l, Karmana va Paykand cho'li bilan ajratilgan quruq vohalaridan, hamda Nurato va Konimex kabi kichik vohalardan tashkil topgan edi. Uning qadimiy savdo yo'lida joylashuvi qo'shni mamlakatlar bilan qadimiy madaniy muloqotda bo'lishga imkon yaratar edi.

XIX asrning yarmida Buxoro aholisi o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilardan tashkil topgan edi. Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda, ular quyidagicha: Ko'chmanchilar 500 ming; o'trok yashovchilar 500 ming va yarim

ko'chmanchi 1 million 700 ming, Buxoro shaharida 100 ming; butun amirlikda esa 3 millionga yaqin aholi istiqomat qilar edi.

Shaharda yashovchilar asosan hunarmandlar va savdogarlardan iborat bo'lib, boshqa kasb egalari bilan yaqin ovrupacha "uchinchi tabaqa" yani fuqaroni tashkil qilar edilar. Ulardan tashqari harbiylar-sipoyi, zodagon va ruhoniylar, amiru-ulamolar mavjud edilar. Buxoroning aholisini o'zbeklar va tojiklar tashkil qilar edilar. Bu ikki xalq asrlar osha birga yashab, har tomondan bir-biriga yaqin moddiy va madaniy boyliklarni, urf-odat va an'analarni yaratdi.

Tojiklar amirlikning shahar va qishloqlarida o'troq tarzda hayot kechirishar, o'zbeklar tarkibi bu davrda ancha murakkab edi. Ular orasida tili va madaniyati yaqin bo'lgan, lekin o'zbeklarga to'lik qo'shilmagan guruhlar ko'p edi. O'zbeklar qishloq-o'troq aholisini, shahar o'troq aholisini va urug' - aymoq tartibini saqlab qolgan yarim ko'chmanchilardan iborat edi.

O'trok turmush kechirayotgan o'zbeklar eramizdan oldingi 1 minginchi yillarning ohirlaridan XVI asrgacha, undan XIX asr ohiri XX asr boshlarigacha bir oz sekinrok davom etgan ko'p asrlik forsiyzabon, Turk, qisman mo'g'ul va boshka etnik guruhlarining o'zaro qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan edi. Ko'chmanchi o'zbeklar XIX asrning birinchi yarmidan o'rtacha yarim ko'chmanchi o'troq turmushga o'tadi va hokazo. O'tgan asrning ohiri va XX asrning boshlarida ancha katta guruhli o'zbeklar yarim ko'chmanchi asr hayot kechirayotgan bulishlariga karamay, tom manoda ko'chmanchi o'zbeklar qo'shilmaydi. Yarim ko'chmanchi o'zbeklar chorva va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib, borgan sari ular hayotida qishlok xo'jalik faoliyatiga aylanib boradi.

Yarim ko'chmanchi o'zbeklar urug'-aymoq tuzumini faqat tashkil shaklinigina saqlab qolgan bo'lib, yagona teritoriyaga ega emas edilar. Ular o'troq hayot kechirayotgan aholi orasida alohida guruh-guruh bo'lib joylashgan va shu sababli ular o'zbek xalqining yer, til va etnomadaniy birlashishlariga tabiiy ko'maklashishdi.

Biz o'rganayotgan davrda o'zbeklarning ba'zi turkman, qoraqalpoq, qozoq va boshka xalqlar guruhlar bilan yaqinlashishganini ko'ramiz. Shulardan biri turkmanlar

Zarafshon daryosining qirg'oqlarida va Qashqadaryo cho'llarida XVII-XIX asrlar davomida ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan u yoki bu darajada qo'shilib ketadi. Turkmanlarning ikkinchi guruhi Zarafshonning o'ng sohili va Nurato tog'larida o'rnashib, o'zlarini o'zbeklar deb atashadi. (Ular Nurato turkmanlari nomi bilan mashhur). Nurato turkmanlari Saljuklar keyingi (X-XI) va issiqlik Amudaryo bo'ylaridan kelgan turkman qabilalarining mahalliy o'zbeklar bilan aralashuvi natijasida keladilar.

O'rta Osiyoning turli yerlarida istiqomat qilib kelayotgan aholilardan yana biri tojiklardir. Ular tildan tashkari qo'shni o'zbeklardan biz o'rganayotgan biror narsasi bilan farq qilishmagan. Buxoro xonligida tojiklar shahar va qishloqlarda o'zbeklar bilan yonma-yon yashagan.

Tojik so'zi avaliga (xususan turklarda) tilidan qat'iy nazar o'trok yashayotgan va musulmon bulgan kishilarga nisbattan. Jumladan, Kavkaz armanlari orasida yashayotgan usmonli turklarni ular tojiklar deb atashgan. Turkistonning bazida yerlarida, jumladan Jizzaxning qishlog'ida yashovchi aholi qo'shnilaridan na tili va na turmush tarzi bilan farq qilinmasa-da, ularning tojiklar deb atashgan. Bu esa qadimgi tojik so'zini shaharlik yoki o'troq turmush kechiruvchi sifatida islatilganligini aniq ko'rsatadi. Keyinchalik tojik so'zi biz bugun anglaydigan ma'noda ishlatila boshlandi.

Buxoro xonligida biz o'rganayotgan davrda arablar, afg'onlar, eronliklar, mavrdan kelganlar, hindlar, yahudiylar, tatarlar va boshka xalq - elatlari istiqomat qilishgan. Ularning faoliyatlari malum chegaralanishiga karamay, yuridik jamiyat ijtimoiy hayoti va madaniyatida ishtiroklari sezilarli bo'lgan. Ularning etnik farqlari turmush tarzidagi farqlar bilan bog'lanib ketib, shahar va uy hunarmandchiligiga o'z muhrini bosgan. Shahar va urug - aymoq san'ati is'temolda aniq chegaralanmagan, chunki aholining qiziqishi birlashib, aralashib ketib, tildagi farq sana'tidagi farq bilan barobar bo'lmay qolgan natijada Buxoro xalq amaliy - bezak san'ati deb nomlangan o'ziga xos badiiy maktab yuzaga kelgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi 2022-2026
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 -son Farmoni Lex.uz 2022 2 Tarixdan hikoyalar 5- sinf darslik U.Jo'rayev va boshqalar Cho'lpon 2020 3
3. Qadimgi dunyo tarixi 6- sinf darsligi A. S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Yangiyo'l poligraf servis 2017 4
4. Qadimgi dunyo tarixi 6- sinf darsligi A. S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Yangiyo'l poligraf servis 2022 5
5. O'zbekiston tarixi 7- sinf darsligi A.Muhammadjonov Sharq 2017 6
6. O'zbekiston tarixi 7- sinf darsligi A.Zamonov,N.Ismatova va boshqalar Sharq 2022 7
7. Respublika ta'lim markazi 2022 9 O'zbekiston tarixi 8- sinf darsligi U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov O'qituvchi 2019 10
8. [https://vaqt.ucoz.com/publ/tarix/xorazm_ma_39_mun_akademiyas i/33-1-0-1062](https://vaqt.ucoz.com/publ/tarix/xorazm_ma_39_mun_akademiyas_i/33-1-0-1062)